

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

JISER

International
multidisciplinary
scientific journal



Volume 6, Issue 6

- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation





***“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC
AND EDUCATIONAL RESEARCH”***

VOLUME 6, ISSUE 6
(30- June)

1.	ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИНГ ЎРНИ <i>Қ.Б.Умаров</i> <i>С.Қ.Мадумарова</i> <i>А.З.Солиев</i>	8
2.	ФРАНЦУЗСКАЯ ЛИТЕРАТУРА XIX ВЕКА <i>Акбарова Шахло Ганиевна</i> <i>Расулов Хасанбой</i>	14
3.	MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI <i>Hasanov Halim Ravshanovich</i>	18
4.	KORPUSGA ASOSLANGAN LINGVISTIKA <i>Sobirova Shohsanam Sobirjonovna</i>	22
5.	РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ <i>Хайтбоев Иноят Мадиёр Ўғли</i>	26
6.	ИНТЕРНЕТНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИДА САМАРАЛИ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ <i>Аллаяров Отабек Эркинович</i>	34
7.	“ TURKIYA SAYLOVINING XALQARO MUNOSABATLARDAGI O'RNI VA AHAMIYATI ” <i>Turobjonov. M</i>	42
8.	AGROCHEMICAL CONTENT OF WATERED SAZ SOIL ALONG WITH DIFFERENT MECHANICAL PARAMETERS SCATTERED IN CENTRAL FERGHANA. <i>N.Yu.Abduraxmonov</i> <i>O'.T. Sobitov</i> <i>M.K.Pulatov</i>	48
9.	GLOBALLASHGAN DUNYO “YANGI BILIM VA KOMPETENSIYALAR DAVRI”GA QADAM QO'YDI <i>Saidov Zoxidjon Habibullayevich</i>	53
10.	AVTOMOBILNING INFORMATIVLIGI <i>Ergashev Sanjar Alimboyevich</i>	56
11.	CLASSIFICATIONS AND CHARACTERISTICS OF SIGNS IN SEMIOTICS <i>Shamsutdinova Nazokat Alisherovna</i>	62
12.	KORRUPSIYA VA JINOYATCHILIK TARAQQIYOT KUSHANDASI <i>Baxtiyorov Javohirbek Jaxongirovich</i>	68
13.	УНИВЕРСАЛ МОЛА-БОРАНА КОНСТРУКЦИЯСИ ТАХЛИЛИ <i>Комилов Мухриддин рақибэк уғли</i>	72
14.	ОИЛАНИНГ МАЪНАВИЙ ВА РУҲИЙ ОМИЛЛАРИ <i>Султонова Назокат</i>	77
15.	INNOVATSION TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISH VA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA YANGI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQUISH <i>Yakubov Hazratqul Ummatovich</i>	82
16.	MUDOFAA-SANOAT KOMPLEKSINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Isamatov Ravshan Sunnatovich</i>	86
17.	ORTIQCCHA TANA VAZNINING ARTERIAL GIPERTONIYA BILAN XASTALANGAN BEMORLARDA TARQALISHI <i>Shonosirova Maxsuma</i>	90
18.	ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ СОҲАСИДА ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШ ҲАМДА УНДА ЛОЙИҲА БОШҚАРУВИ ТАЖРИБАСИНИ ҚўЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ <i>Бекназаров Зайниддин Мамарасулович</i>	93
19.	TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHIDA ORTDA QOLISH MUAMMOSI <i>Madaminjonov Xojjakbar Saydamin o'g'li</i>	100
20.	DIFFERENCES BETWEEN BRITISH AND AMERICAN ENGLISH <i>Bazarov Ihtiyor Rahmatullayevich</i> <i>Kenesova Jazira Baurirjan qizi</i>	104
21.	KOEFFITSIENTI UZILISHGA EGA BO'LGAN YUKLANGAN TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY MASALA <i>Azizov Muzaffar Sulaymonovich</i> <i>To'lqinboyeva Ma'muraxon Zafarjon qizi</i>	106
22.	LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Ikmatillayeva Nilufar Avazjanovna</i>	113

MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING
AHAMIYATI

Hasanov Halim Ravshanovich

Buxoro davlat universiteti

"Cholg'u ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida vatanga sadoqat hissini shakllantirishning fanlararo aloqadorlik omillarining mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Integratsiya, vatanga sadoqat, vatanparvarlik, fanlararo, musiqiy meros.*

V dannoy state rassmatrivaetsya znachenie mejpredmetnykh faktorov v formirovanii chuvstva patriotizma na urokax muzыkalnoy kultury.

Klyuchevye slova: *integratsiya, patriotizm, mejdissiplinarnost, muzыkalnoe nasledie.*

This article discusses the importance of interdisciplinary factors in the formation of a sense of patriotism in the lessons of music culture.

Keywords: *Integration, patriotism, patriotism, interdisciplinary, musical heritage.*

Yurtimiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Keyingi yillarda bosqichma - bosqich darsliklar yaratilib, shu asosida o'quvchilarga milliylashtirilgan ta'lim va tarbiya berila boshlandi. Hozirgi kunda darslarni o'qitishda fanlararo aloqadorlikka katta e'tibor berib kelinmoqda. Buni musiqa darsliklarida o'qitilayotgan mavzular misolida ham ko'rish mumkin .

O'qituvchi - yoshlarning jamoa bo'lib kuylash, musiqa tinglash faoliyatlariga, yurt tinchligi, osoyishtaligi va farovonligi, ona tabiat va uni asrash, qadrlash mavzusidagi musiqa asarlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish muhimdir. Yoshlarni madaniy va estetik tarbiyalashda estetik tarbiya g'oyasini ruhan his qilish targ'ibotiga musiqa madaniyati darslarining ahamiyati kattadir.

Psixolog olimlarning takidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab turlarining eng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita ta'sir eta olmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvati zahiralari saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltira oladi.

O'quvchilarga o'rgatiladigan qo'shiqni albatta mazmuni suhbat bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, 3-sinf musiqa darsligi (mualliflar Nadim Norxo'jaev, Dinora Umedova, Nasibaxon Rashidova) 34-saxifasidan o'rin olgan "Jon Vatanim" qo'shig'i K.Turdiyeva she'ri, I.Yo'ldosheva musiqasini o'quvchilarga o'rgatishda, dastlab Vatan nimadan boshlanadi? - degan savolga javob topish uchun 3-sinf tarbiya darsligining "Serquyosh hur o'lka" mavzusidagi matndan foydalanib

undagi “Dunyodagi mening makonim” bo’limi asosida suhbat o’tkaziladi. Unda yoshlarga vatan tushunchasini asta -sekin kengaya borishi misollar asosida tushintiriladi. Bular:

Vatan deganim - bu mening uyim

Mening mahallam

Mening shahrim

Mening viloyatim

Mening qishlog’im

Mening sayyoram ...kabilarga qisqacha izoh beriladi.

“Jon vatanim“ qo’shig’ini jamoa bo’lib kuylashdan oldin uning har bir bandini o’qituvchi tomonidan tushintirib beriladi va intonatsiyaga rioya qilgan holda o’qilishi lozim .

Bizlar toy-toy yurgan hovli o’ylar ham ,onajonlar aytgan alla, kuylar ham, bog’cha , maktab tomon eltgan yo’lakcha -Vatanimiz dunyo ichra bo’lakcha.

Dars davomida mamlakatimiz mustaqilligi ,tinchligi osoyishtaligi yurt boshimizning boshqa davlatlar bilan olib borayotgan tinchliksevar, do’stlik ,hamkorlik siyosati, el-yurt obodligi, farovonligi uchun olib borayotgan ulkan ishlar haqida so’zlab berish maqsadga muvofiqdir. Shundagina o’quvchilar ongida bu tushunchalar singdirilgach, Vatan haqidagi qo’shiqning mohiyati yanada kuchayadi va ular tinchlik, osoyishtalik bebaho boylik ekanligini tushinib, o’zi yashayotgan diyor madhini jo’shib kuylagisi keladi.

Naqarot

Tug’ilgan kun muborak ,

Jon vatan, jon vatan.

Sen bizlarga sevimlisan ,

Hammadan, hammadan .

Qayga borsak kelar yurtga ,

Qaytgimiz,qaytgimiz .

Eng yaxshisan deya

Takror aytgimiz ,aytgimiz .

Tug’ilgan kun muborak

Jon vatan jon vatan .

Bolaga yoshligidanoq nimani o’rgatsangiz shuni qabul qiladi. Bu degani o’qituvchi qanday bo’lsa , o’quvchi ham shunday ilimga ega bo’lib, yetishadi. Shu bois o’qtuvchi-pedagoglar o’z ustida tinmay ishlashi, izlanishi bugungi kun talablari bilan bir qatorda yangiliklarni to’la anglashi, zamonaviy pedtexnologiya usullarini keng qo’llashga intilishi hamda yuksak mahoratga ega bo’lishi zarur.

Qo’shiqni kuylaganda so’zlarni tushunarli ravon talaffuz qilishi kerak. Shunday so’zlar borki talaffuzda o’xshash bo’lsa ham, turlicha ma’no anglatadi. Masalan: aytkan-aytgan, ala-alla, boqcha-bog’cha, yurtga-yurtka, mexr-mehr, ulashgan-ulashkan

kabi.

Vatan asli mahalla-kuy o'rtog'lar,
Atrofdagi daraxtlar-u gulbog'lar.
Sen o'zingsan bizga mehr ulashgan,
Yuragimiz sening bilan birlashgan.

"Jon Vatan" qo'shig'ining mazmuni o'qituvchi tomonidan tushintirilib, yoshlarga Vatan deganimiz uyimiz, hovlimiz, onamiz aytgan alla, tinglagan kuyimiz, soylardagi suvimiz, mahalla kuy, daraxtlar-u gulbog'lar bizga mehr ulashgan narsalar ekanligi uqtiriladi.

Qo'shiqni kuylashdan oldin talaffuzni yaxshilashga doir mashqni bajarish lozim. Bu esa o'quvchini qo'shiq kuylashda, uning matnidagi har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri va musiqiy ohangiga mos holda ijro etishga o'rgatiladi.

Musiqa inson komolotidagi ahamiyati haqida Abu Ali Ibn Sino "Insonni ma'naviy yetuk, jismoniy baquvvat, har tomonlama komolotga yetgazishda, bolani juda yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotini tarbiyalash muhim" ligini ta'kidlagan. Mir Alisher Navoiy esa bolani yoshligidan qunt bilan tarbiyalash, go'zallik olamiga oshno etib, ma'naviy ta'sir ko'rsatish bilan uni kamol toptirish g'oyasini ilgari surgan.

Musiqa turli tovushlar yordamida obraz yaratuvchi san'at turi hisoblanadi. U hissiy mazmunga ham egadir. Musiqa va harakat kuy mazmunini ifoda etadi. Kuy mazmunini ifoda etgan harakatni esa raqs deb ataymiz.

Musiqa darsligida fanlararo aloqadorlikning ahamiyatli tomoni shuki, o'quvchilar biror mavzudagi qo'shiqni ijro etishdan oldin tabiiy fanlar, ona tili va o'qish savodxonligi, tasviriy san'at kabi ilmiy darsliklardan o'rin olgan ona-vatanimizni madh etuvchi turli mavzudagi matnlar, san'at va madaniyat, zamonaviy texnologiyalar nutqimiz bezagi "so'zdan so'zning farqi bor", "sayyohlari ko'p diyor", "kitobdan yaxshi do'st yo'q", "serquyosh hur o'lkam" kabi ma'naviy marifiy ahamiyatga ega bo'lgan bilim va qobilyatlarni o'rganadilar.

Musiqa darslarida o'rganilib ijro etiladigan har bir qo'shiq hozirgi davrda o'qitilayotgan fanlardan matnlarning mazmuni bilan hamohangdir. Bunday fanlar aro aloqadorlikning uzviy tashkil etilishi yoshlarning madaniy, estetik hamda ma'naviy qobilyatlarini o'sishi shu bilan birga o'rganilayotgan har bir qo'shiqni ongli tushunib ijro etishga keng yo'l ochib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017,.
2. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy. I-tom. -T.: O'zbekiston SSR Davlat badiiy Adabiyoti nashriyoti, 1955. -567 b.

3. Hasanov H.R. "Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlar aro aloqadorlikni pedagogik asoslari" Monografiya .Buxoro: " Durдона", 2021.
4. Культура и искусство в эпоху Амира Темура и темуридов Х.Р. Хасанов Вестник науки и образования, 119-122
5. методика организации «группового пения» в преподавании «музыкальной культуры» в общеобразовательных школах Х.Р. Хасанов Science and innovation 1 (B2), 165-168
6. ANSAMBL IJROCHILIGI FAOLIYATING TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI H.R. Hasanov Scientific progress 1 (6), 650-655